

PAPER

QISSALARDAN OLINGAN HISSALAR

Hilolabonu Mahmudbekova

* gofurovhasanjon1995@gmail.com

Abstract

Maqolada Xurshid Do'stmuhammad qissalarining zamonaviy o'zbek adabiyotida tutgan o'rni yoritilgan. Yozuvchi asarlarining o'ziga xos jihatlari, badiiy mahorat qirralari yoritib berilgan.

Key words: qissa, epik tur, psixologik tahlil, ruhiyat, syujet, badiiy g'oya, konflikt, proza, mahorat.

Kirish

Badiiy adabiyotda qahramon, personaj, obraz, xarakter kabi tushuncha va masalalar juda katta o'rinni egallaydi. Chunki, har qanday asarda umumiy qilib aytganda, inson qatnashadi. Adabiyot markazida inson turadi. Ayni paytda, bir davrdagi adabiyot bilan keyingi davrdagi adabiyot bir-birini takrorlamaydigan holatda shakllanadi. Ma'lum bir davrdagi adabiyotning paydo bo'lishida o'ziga xos qonuniy asoslar bo'ladi. Barchamizga ma'lumki, har qanday asar o'z zamonasi, davr muammolariga munosabati o'sha kunlarning dolzarb savollariga bergan javobi sifatida maydonga keladi. Ijdor tarixiy asar yaratadimi, zamonaviy asar yozadimi ularda o'z davrining ijtimoiy siyosiy hayoti, madaniyati, insonlarning ma'naviy qiyofasi o'z aksini topgan bo'ladi.

Ushbu ishning maqsadi

Adabiyot va davr munosabatlarini o'rganish va aniqlash, bir davrdagi milliy adabiyotni boshqasi bilan farqini to'g'ri baholay olish, hamisha mushkul ilmiy masalardan biri bo'lib kelgan. Ushbu maqolaning bosh maqsadi ham qissalardan anglashilgn hissalardan iboratdir.

Xususan, taniqli adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshovning: "...davr-zamon deb atalmish bir o'chamli abadiy sanalgan hodisaning o'tkinch bir bo'lagi, adabiyot esa uch o'chamli o'tkinchi tushuncha bo'lmish davrga xos belgilarning odamda namoyon bo'ladigan omonat jihatlarini abadiyatga muhershga urunadigan san'at turidir", - degan fikrlari yuqorida ilgari surilgan fikrlarning yana bir bor to'g'riligini isbotlaydi. Eski davr bilan yangi davr kishilarining insonlararo munosabatlari, ongi-tafakkurini qayta qurishdagi, odamiylik qadriyatlarini baholashdagi ma'naviy qiyofasi badiiy tadqiqotchilik markazida bo'ladi. Akademik L.S.Lixachev ham bu borada shunday deydi: "Davr insonni chetlab, hech narsa yarata olmaydi. Davr inson va uning maqsadi orqali ta'sir omiliga aylanadi. Bunda har kimga har

xil ta'sir etadi. Chunki turli davrda insonlarning jamiyatda tutgan o'rni turlichadir." [1:145]

Natija va tahlil

Xurshid Do'stmuhammadning "So'roq" qissasini o'qigan kitobxon qahramonlar hayotidagi voqealardan 60-yillar davr hayotini ko'rishi mumkin. Bu qissa qahramonlari o'z-o'zini taftish qilish kabi insoniy hayot normasidan toygan, aniqroq qilib aytganda, toydirilgan jamiyat a'zolaridir. Buning oqibatida o'sha davr kishilarining ruhiyatida oddiy so'roqdan qo'rqish hatto qo'chish holatlari paydo bo'ladi. Insonlar o'zlariga emas kimlargadir ishonib yashashni odat qilib olishgan edi. Bu dunyoda "qo'llaydigan" odaming bo'lmasa yashash qiyinlashib borishiga amin bo'lgan qissamiz qahramoni Bozorning tilidan aytilgan ushu gaplar fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi: "Birorta suyanchig'ing bo'lmasa, bu dunyoda kun ko'rolmaysan" 2:196]

Ular vaqtি kelib Yaratganning oldida so'roqqa tutilishlari aniqligini unutib qo'yishgan edi. Bunga sabab o'sha davr siyosati va insonlarga singdirilgan mafkura edi. Muallif asarga hadisdan keltirilgan: "So'roqqa tutilmay turib o'zlarining o'zlarining so'roq qilinglar" ushbu so'zлarni epigraf sifatida keltirgan. Bu orqali yozuvchi bugungi davr insonlarini o'yashga, mushohada qilishga chorlamoqda. Shunga o'xshash g'oyalarni adibning boshqa qissalarida ham uchratish mumkin.

Munozara

Yozuvchining yana bir qissasi "Panoh"da ham qahramon va shu davr muhiti ifodalangan. Qissaning bosh qahramoni Ahmadalid ismli kishi. Asarda qahramonimiz Ahmadalidining zilziladan so'ng ammasinikidan to uyigacha bo'lgan masofani bosib o'tishi va bu oradagi o'y-xayollar, ko'rgan kechirgan voqealari tasvirlanadi. Bu zilzila 13-oktabr 22:13da sodir bo'ladi. Muallifning bu vaqtini

aynan keltirib o'tishi kitobxonni asarga yanada yaqinlashtiradi. Uning tasavvurrini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Ayni shu daqiqada Ahmadalining ong osti qatlamlarida kechayotgan jarayonlarni uyg'otib yuboradi. Badiiy asardagi "Ong oqimi" deb nomlanuvchi bu estetik tadqiqot o'quvchini faol ishlashgga, muallif bilan bab-baravar badiiy tadqiqot o'tkazishga majbur etadi. Bu asar milliy etnik tushunchalar, tasavvur va qadriyatlar asosida shakllantirilgan bo'lib, jiddiy va ta'sirli g'oyaga egadir. Adabiyotshunos Shuhrat Rizayev bu qissa haqida shunday yozadi: " O'zbek zaminida, sof milliy-etnik tushunchalar negizida shakllangan, tarbiya topgan o'zbekning va o'zbekona fikrlashi, ong jarayonini taddiq etishi yurt, qadriyat, mehr-oqibat, sadoqat kabi nihoyatda insoniy tushunchalarning insonga panoh ekanligi haqidagi yaxlit ibratlari hissani ayonlantririb beradi. Asar modernnning aynan o'zi emas, balki modernlashgan realizm ekanligi bir chekkasi shunda hamdir." [3;46] Haqiqatdan ham insonni insonligini bildirib turuvchi mehr-oqibat, do'stlik, vatanga muhabbat kabi tuyg'ular doimo panoh bo'lib turadi. Bu tuyg'ulardan yiroqlashgan kishilar qissamiz qahramonlari singari mushkul vaziyatlarga, ruhiy qiyonoqlarga uchrashlari mumkin. Xurshid Do'stmuhammedov bu qissani yozishdagi izlanishlari haqida shunday fikrlarni beradi: "Qiziq, odam qattiq xavotirlanganda, yurak hovuchlab, kerakli joyga yetib borgunicha shayton "olib ochayotgan" xayoliga nimalar oralaganini bilmaydi-idrok etolmaydi. Men, ana shunday-kishining bir necha soniya davom etadigan parokanda o'ylarini, uzuq-yulgu xayollarini tutib, bosh qahramonning uch-to'rt daqiqalik mushkul vaziyatda... o'zini tutishi, xatti-harakatlari, gap-so'zları, o'y- xayollarini tadqiq etish bilan u haqda mufassal tasavvur yaratish imkonlarini izladim." [4;67]

Haqiqatan ham muallif insonning junbushga kelgan aqldan tashqari holatini yoritishga harakat qilgan. Bu qissa uchun zilzila bo'lishi shartli bir vosita hisoblanadi. Aslida bu zilzila insonlar ma'naviyatida sodir bo'ldi. Agar Abduvali muallim otasining hovlisida uch tup o'rak o'stinganligi uchun uni xalq dushmaniga chiqarishmaganda, hamqishlog'i Appon zakun vijdonini sotib, uning jinoyatchi ekanligiga isbot keltirmaganda, Ro'zixon ayaning eri Abduvali muallimning o'g'liga qarab turganligi uchun xotinini urmaganida, yer qimirlashidan aziyat chekkanlarga moddiy yordam beruvchi komissiya rahbari uyi bosib tushgan Gulgun bevaning haqqiga xiyonat qilmaganida, Ahmadalining opasi qudasi Appon zakunning ahvoli yaxshi emasligini, shiftga qarab yotganligini shu sababli to'yga qatnasha olmasligini mammuniyat bilan aytmaganida balki Jo'ba qishlog'ini yer yutmasdi.

Bu qissani o'qigan kishi olamning hamisha odamlarning fe'l-atvoriga, niyatiga, amaliga bog'liq ekanligiga amin bo'ladi. Asarni diqqat bilan o'qisak bu yerda deyarli barcha narsalarda, voqealarda ramziylik bor. Ahmadalining tirnog'i ko'chib, qo'li zirqirab, xuddi tirnog'i orasiga pona qoqilganday azob beradi. Muallif bu tasvirni bejiz keltirmagan. Bu ham bir ramz. Pona aslida uning tirnog'i orasiga emas o'tmish bilan bugungi kun, ya'ni kindik qoni to'kilgan qishloq bilan yangi qurilayotgan shaharcha orasiga qoqilmoqda. Ya'ni mustaqillik yaqin ekanligidan dalolat beradi. Yozuvchi, Xurshid Do'stmuhammad insoniyatni ham zohiriyl, ham botiniy panohini izlab topishga undaydi. Buning uchun esa bu dunyoning chirkin ishlariga bulg'anmasligimiz, har qadamda hisob talab qilib turadigan ruhiy qiyofamizni ya'ni o'zligimizni unutmasligimiz lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hayotdagi inqilobiy o'zgarishlarning ijtimoiy ahamiyati, odamlar dunyoqarashini kengaytirish mohiyati va ma'nosi ushbu davr o'zbek qissachiligining bosh mavzusi bo'lib qoldi. Bu jarayondagi ziddiyatlar, ijtimoiy tiplar yozuvchilarimizning badiiy

izlanishlaridan tushib qolmadidi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. H Karimov. Istiqlol davri adabiyoti .-Tashkent: New edition.2010
2. Do'stmuhammad X. Izhor. Toshkent; - Yangi asr avlod, 2021, -B.196.
3. Rizayev Sh // Til va adabiyot ta'limi // 2011. 2-son-B.43-56
4. Xolliyev N. "Yoshlik" jurnali 1990. 6-son - B.67.